

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1158 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,5 f.p. ko'paygan**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1284 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-may oyida bo'yicha viloyatda yilning boshiga nisbatan 1539 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,6 foizga ko'pdir.


Buning natijasida joriy faoliyat ko`rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1158 ta (8,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14877 tani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tuga-tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,4 % shahrida (20,1 foiz), Denov ga kamaygan hamda ular (12,1 foiz), Jarqo'rg'on ning soni 255 tani tashkil (8,0 foiz) va Termiz (7,0 foiz) etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,1 foiz), Denov ga kamaygan hamda ular (12,1 foiz), Jarqo'rg'on ning soni 255 tani tashkil (8,0 foiz) va Termiz (7,0 foiz) tumanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




## ***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)*

	<b>Ro'yxatdan o'tgan</b>		<b>Faoliyat ko'rsatayotgan</b>	
	<b>birlikda</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>	<b>birlikda</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>15711</b>	<b>100</b>	<b>14877</b>	<b>100</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>3072</b>	<b>19,6</b>	<b>2988</b>	<b>20,1</b>
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	648	4,1	588	4,0
Angor	747	4,8	715	4,8
Boysun	757	4,8	726	4,9
Muzrabot	645	4,1	605	4,1
Denov	1893	12,0	1797	12,1
Jarqo'rg'on	1226	7,8	1184	8,0
Qumqo'rg'on	1014	6,5	930	6,3
Qiziriq	813	5,2	762	5,1
Sariosiyo	914	5,8	856	5,8
Termiz	1077	6,9	1048	7,0
Uzun	929	5,9	824	5,5
Sherobod	948	6,0	910	6,1
Sho'rchi	1028	6,5	944	6,3

### **Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,7 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 foizga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

█ faoliyat ko'rsatayotganlar    █ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **24,0** % savdoda, **12,2** % sanoatda, **11,1** % qurilishda, **7,5** % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **7,0** % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **4,6** % tashish va saqlash, **1,8** % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, **1,4** % axborot va aloqa va **30,4** % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**



2018 yil yanvar-may holatiga 1539 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 30,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (242 ta), Denov (207 ta), Sho'rchi (168 ta) va Qumqo'rg'on tumanlarida (130 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (52 ta), Boysun (66 ta), Muzrabot (69 ta), Uzun (70 ta), hamda Sherobod (72 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (365 ta), boshqa turlarida (357 ta), sanoatda (228 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (216 ta), qurilishda (170 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (106) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (9 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta) va tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>1178</b>	<b>1539</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	166	216
Sanoat	219	228
Qurilish	153	170
Savdo	275	365
Tashish va saqlash	77	47
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	133	106
Axborot va aloqa	11	9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	41
Boshqa turlari	127	357

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,4 f.p), Axborot va aloqada (-0,3 f.p), savdoda (-0,2 f.p), Tashish va saqlashda (-0,1 f.p) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,1 f.p.), qurulishda (+0,5 f.p.), sanoatda (+0,3 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	fargi (+)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	3,2	-1,4
Savdo	24	24,2	-0,2
Axborot va aloqa	1,4	1,7	-0,3
Sanoat	12,2	11,9	0,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,5	6,4	1,1
Qurilish	11,1	10,6	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	6,9	0,1
Tashish va saqlash	4,6	4,7	-0,1
Boshqa turlari	30,4	30,4	0

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 11545 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5316 ta, oilaviy korxonalar – 689 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5125 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 23 tani va boshqalar 392 tani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 89 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 33,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 41 tasi qo'shma korxonalar, 48 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar 34 ta (38,2 %), Termiz 9 ta (10,1%), Jarqo'rg'on 7 ta (7,9%), Denov va Qumqo'rg'on tumanlarida 6 ta dan (6,8 % dan), Sherobod va Sariosiyo tumanlarida 5 ta dan (5,6 % dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Angor 4 ta (4,5%), Oltinsoy va Sho'rchi tumanlarida 3 ta dan (3,4% dan), Qiziriq, Muzrabot va Uzun tumanlarida 2 ta dan (2,2 % dan) hamda Boysun tumanida 1 ta (1,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 37 ta (41,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 20 ta (22,5 %), savdoda 16 ta (18,0 %), boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (5,6 %), tashish va saqlashda hamda qurilishda 4 ta dan (4,5 % dan) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqada, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta dan (1,1 % dan) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqa hamda sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'gri keladi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 30 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga ko'paygan yoki 13,3 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 1 ta, Qozogiston Respublikasi – 3 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 18 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi –2 ta, Tojikiston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13 ta, savdoda 9 ta, sanoatda 5 ta, qurilishda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11459 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 10,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2988 tasi (20,1%) Termiz shahriga, 1797 tasi (12,1%) Denov, 1184 tasi (8,0%) Jarqo'rg'on hamda 1048 tasi (7,0%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11459 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3561 tasi (31,0 %) – savdoda, 1789 tasi (15,6 %) - sanoatda, 1636 tasi (14,3 %) - qurilishda, 1287 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1075 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1032 tasi (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 673 tasi (5,9 %) - tashish va saqlashda, 203 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 203 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1389 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz sh. (225 ta), Denov (196 ta), Sho'rchi (165 ta), Qumqo'rgon (103), Jarqo'rg'on (94 ta), Angor (90 ta), Qiziriq (87 ta), Termiz (76 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (69 ta), Sariosiyo (68 ta), Muzrabot (66 ta), Boysun (63 ta), Uzun (55 ta) hamda Oltinsoy (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (365 ta), sanoatda (228 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (216 ta), boshqa turlarida (208 ta), qurilishda (169 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (106 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (47 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta) hamda axborot va aloqada (9 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ Axborot va aloqa

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


■ Boshqa turlari



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 741 tani tashkil etib, ulardan 689 tasi yoki 93,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **24,5 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 33,4 % yoki 230 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,3 % yoki 167 tasi sanoat, 21,9 % yoki 151 tasi savdo, 12,9 % yoki 89 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,7 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 7 tasi qurilish, 0,7 % yoki 5 tasi sog`lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 3,8 % yoki 26 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



# **Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**

## **statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**r uchun mas'ul O.Raxmanov**



# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan